



FUTBOL UYNINING MAZMUNI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Orazimbetov S. J.

Ajiniyaz atindagi NMPI

Mirzambetov P.Sh.

Ajiniyaz atindagi NMPI

Tayanch sozlar: futbolning rivojlanishi, futbolni takomillashtirish, futbolning tarixiy ahamiyati, futbol tug'risida farmoyishlar, sport mashq jarayoni.

Ключевые слова: развитие футбола, совершенствование футбола, историческое значение футбола, приказы о футболе, процесс спортивной подготовки.

Key words: the development of football, the improvement of football, the historical significance of football, football orders, the process of sports training.

Futbol «oyoqtupi» degan ma'nodagi inglizcha suz bulib, Frantsiya, İspaniya, Rossiyada shu nom saqlanib qolgan. Nemislarda u «fusbol», vengerlarda «laburagosh», İtalyanlarda «kalchio», Yugoslavlarda «nagomet», Amerika «sokker» deyiladi. Futbolning haq, ommasini jismoniy rivojlantirishning, uning salomatligini mustahkamlashning eng ommabop, vositasidir. Bu kattalarga ham, osmirlarga ham, bolalarga ham birdek ma'qul bolgan chinakam o'yin .

Futbol atletik o'yin . U tezkorlik, chaqqonlik, kuchlilik va sakrovchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Futbolchi o'yin paytida haddan tashqari kop ish bajaradi. Bu esa odamning funktsional imkoniyatlari darajasini oshirishga, ma'noviy, irodaviy hislatlarini tarbiyalashga yordam beradi.[6]

Futbol o'yin ing negizida o'yin chilarni umumiy maqsad 2 barabariga intilish birlashtirib turgan jamoalardan ikkitasining kurashi yotadi g'alabani qolga kiritishga intilish futbolchilarni jamao bolib harakat qilishga, bir biriga oz-aro yordam berishga orgatadi, dostlik, ortoqlik tuygularini tarbiyalaydi. Futbol oynash umumiy jismoniy tayorgarlik kurashida yaxshi vosita bolib xizmat qila oladi. Yonalishini ozgartirib xilma-xil yugurush sakrashning turli xillari, struktura jihatidan turlicha gavda harakatlari, topni tepish, toxtatib olish va olib yurish, maksimal tezlikda harakat qilish, irodaviy hislatlarning,



taktik taffakurining kamol topishi futbolni har qanday ixtisoslikdagi sportchiga zarur bolgan kopgina mohim hislatlarni ostiradigan sport o`yin i dep hisoblash imkoniyatini beradi.

Hozirgi zamon futbolining «ajdodi» bundan ikki ming yil avval qadimgi Sharq xaliqlari va antik dunyo davlatlari Gretsiya va Rimda ma`lum bolgan «Garponon» (usha payitda futbol shunday atalar edi) o`yini o`ynagan qadimgi Gretsiya o`smirlari maydon ortasidan turib topni raqiblar tomoniga o`tkazishga, Goy Bliy Tsezarning rimlik legionerlari topni har qanday usul va priyomlarni qullagan holda ustunlar o`rasiga kirgizishga harakat qilganlar. Orta asrlarda o`yin keng tus oldi. Bunda koचा va qishloqlar maydon ornida hizmat qilardi. Musobaqalar kun urtasida boshlanar edi va qarang`u tushguncha davom etardi. Topni butun shahar boylab ma`lum bir joygacha surib kelishga erishgan «komanda» g`olib hisoblanardi. Shu sababdan va «jin uyin» sifatida ingliz qirollari futbolni kop marta taqiqlaganlar. Bu taqiq 200 yil amalda boldi.

19 asr urtalariga kelib, sport metodi jismoniy tarbiyaning eng maqbul metodi dep topilib, sport hamda sport o`yinlari jismoniy rivojlanishning samarali vositasi bolib qolgandan keyin futbol tarixida Yangi bosqich boshlandi.

Oyoqda top oynash birinchi galda ingliz kollejlari hamda universitetlarida yoyiladi. 19 – asrning ikkinchi yarimidan futbol o`yinida ochiq o`ydin ikki yunalish tarkib topadi. Ulardan birini London hamda Kembrij kollejlari qullab quvvatlar edi. Bular 1863 yili futbol assotsiatsiyasi tuzadilar va yumoloq topni faqat oyoqda oynashi rasm qilishga qaror qiladilar. 1848 yili Kembrij futbol klubi birinchi bor yagona o`yin qoyidalarini joriy qiladi va bu qoidalarni nashr etishga qaror qilinadi. Afsuski, ular bosmadan chiqmay yoqolib ketadi. Bizgacha etib kelgan qoidalar 1863 yili 8 dekabrda e`lon qilinadi. Bu qoida 13 banddan iboratdir. Hozir biz bilgan futbol ana shunday paydo bolgan. 1863 yilgi qoidalar Hozirgi qoidalardan farq qilgan. 1871 yili golkipер (darvozobon) Larga 38l da oynash ruxsat beriladi.

Burchakdan to`pni kiritish 1873 yilda kiritldi. 1875 yili ustunlarni birlashtirib turgan arqon yerdan 2,44 m balandlikda yotkizilgan tosinga almashtirildi. 1882 yili 4 ta mustaqil futbol ittifoqi Angliya, Shotlandiya, Uels va Irlandiya futbol ittifoqlari birlashdilar. Futbol maydonida hakam birinchi marta 1880-1881 yillarda ishtiroq etadigan boldi. 1891 yili hakam maydonga ikkita yordamchisi bilan tushadigan boldi. Xalqaro miqiyosidagi dastlabki futbol o`yini 1873 yili Angliya va Shotlandiya futbol jamoalari ortasida bolgan edi. Futbol 1875 yilda Gollandiyada o`ynala boshlandi, 1882 yildan Shveysariyada, 1890 yildan Chexiyada, 1894 yildan Avstriyada, 1897 yildan Rossiyada oynala boshladi. [4]

1904 yili Xalqaro futbol assotsiatsiyasi (FIFA) tuziladi. Hozir uning quramida 190 ga yaqin mamlakat bor. 1954 yildan beri Evropa ittifoqi-UEFA ham ishlab turibdi. Onga 50 ga yaqin mamlakat a'zo bolib kirgan. 1930 yildan beri har tort yilda jahon chempionati, 1958 yildan beri esa Evropa chempionati otkazilib kelinmoqda. 1908 yili futbol Olimpiya o'yinlari da'sturiga kiritildi. UEFA rahbarligida quydagi kubok o'yinlari otkazilib turadi:[2]

Evropa chempionlari kubogi (1956 yildan beri)

Kubok egalari kubogi (1961 yildan beri)

Bular endilikda UEFA kubogi dep yuritiladi.

Zamonaviy futbol Turkistonda asrimizning boshida paydo bo'ldi. Futbol Farg'onada 1911 yilda aka-uka Martinyuk, Rajabov, Grenkolar tashabbusi bilan birinchi futbol komandasi tuzildi. «Uzbekiston fizkulturachisi» roznomasining yozishicha kiyinchilik bilan 12 so'm yig'ildi va Moskva savdo dokonidan top sotib olindi. Undan keyin reykalardan darvoza yasashda va uni cherkov maydonida ornatishti. Undan keyin futbol o'yini boshlandi. Toshkentda ilk futbol jamoalari 1912 yilda gimnaziya oquvchilari orasida tuzildi. 1913 yildan boshlab futbol Samarqandda, Andijonda va Qoqonda keng tarqala boshladi. 1918 yildan keyin Toshkentda «Olimpiya» va «Spartak» futbol klublari qayta tiklandi. Shu yili Toshkentda shaxarlararo musobaqa otkazildi. 1924 yilda futbolchilar tomoshobinlarga qulay bolgan yashil maydonli «KSI» futbol maydonni tashkil qilishdi va bu erda Sirdaryo viloyatining olimpiadasi otkazildi. Futbol musobaqasida TSSKA, Muravey, Deprezivnik, SKA, Fortuna, kenvaytsi jamoalari ishtirok etishdi. 1924 yildagi olimpiada fizkulturachilarning katta bayramiga aylanib ketdi. Bu musobaqada Toshkent, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarining jamoalari qatnashdi. 1928 yili ozbek futbolchilari Bilan bir qator uchrashuvlar otkazildi.

Bularning eng qiziqarlisi Toshkentning «Kor» jamaosining Rossiya jamaosi Bilan bolgan uchrashuv edi. Bu o'yin da futbolchilarimiz 3:1 hisobida g'alaba qozonishdi. 1935-yildan boshlab Toshkentda yoshlar ortasida Ozbekiston birinchiligi otkazila boshladi.

1943-yilning qiyin sharoitida Orto Osiyo Respublikalari va Qozog'istonning spartakiyadasi otkazildi. Ozbek futbolchilari birinchi orinni egallashdi.

Futbol boycha Ozbekiston jamoalari Sobik Ittifoq chempionlari:

1937 yil - «Spartak» (Toshkent)

1938 yil - «Spartak» (Toshkent)

1939 yil - «Spartak» (Toshkent)

1948 yil - «Dinamo» (Toshkent)

1951 yil - «Polyarnaya zvezda» (Toshkent)



1952 yil - «Dinamo» (Toshkent)

1953 yil - «Yoshlar terma jamoasi» (Toshkent)

1954 yil - «Dinamo» (Toshkent)

1955 yil - «ODO» (Toshkent)

1946 yilda bo`horgi Toshkent birinchiligida 119 ta jamoa ishtiroq etishdi. 76 ta kattalar, 35 ospirinlar va 8 ta bolalar jamoalari.

1948-yili ODO jamoasi Orto Osiyo zonasida birinchi orinni egalladi. 1960 yili Sobiq Ittifoq yangi tizimini ishlab chiqdi. Mamlakat chempionatida 22 ta jamoa ishtiroq eta boshladi. Bular ichida «Paxtokor» ham bor edi.

1962-yil Sobiq ittifoq birinchiligida 6-orinni egalladi. Mustaqillikka erishgandan song ko`p ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ya`ni sportimiz orqali yaxshi sportchilarimiz avvalambor, Ozbek sportini Ozbekistonni butun dunyoga tanitib kelmoqda desok mubolag`a bolmaydi. Birinshi Prezidentimiz I.A.Karimov boshchiligida futbol sport o`yining tu`ri ha`m rivojlanib kelmoqda desak hato qilmaymiz.

1993-yil 18-martda Ozbekistonda ommaviy va professional futbolni yanada rivojlantirish, uning moddiy bazasini mustahkamlash, futbolchilarning yangi avlodini tayorlash va tarbiyalash, vatanimiz futbolini xalqaro nufuzini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori chiqdi. Qarordan keyin anchagina sport maktablari, ya`ni futbol maktablari tashkil qilindi. Jumladan, qishloq maktablarida stadaonlarning qurilishlari, futbol uchun mablag` ajratilishi, futbol toplarini tayorlash, musobaqalarni koproq o`tkazilishlari fikrimiz davomidir. Yana bir quvonarli tomoni shundaki, 1994 yil Yaponiyada bolib otgan XII Osiyo o`yinlarida qatnashib, Osiyo chempioni bolganligi bizni ju`da quvontirgan edi. Shundan so`ng Ozbek futboli Osiyo qitasida ham tanila boshladi.

1996 yil 17-yanvarda Vazirlar Mahkamasida yanada futbolni rivojlantirish tug`risida qaror qabul qilindi. Bu qarorda asosan futbolni klub asosida rivojlantirish tog`risida takliflar kiritildi. 1996 yilda kamida 500 mingta rezina toplarini tayorlanishini ta`minlash, ikki oy muddatda futbol jamoalari trenerlarini tayorlash boyicha maxsus kurslar tashkil etish yo`lga qo`yildi.

Shu bilan birga 1998 yil 6 iyulda Vazirlar Mahkamasining rayisi Birinshi Prezidentimiz I.A.Karimov qaror qabul qildi. Bu qarorning asl mohiyati shundan iborat edi, Ozbekistonda futbolni rivojlantirish fondi faoliyatini yaxshilash va uni qollab quvvatlash chora tadbirlari tog`risida. Hozirgi kunni oladigan bolsak, qo`niqarli darajada bajarilib kelinmoqda. Masalan, yana bir quvonarli tomoni shundaki, yoshlar ortasida jahon chempionatining final bosqichiga yoshlar terma jamoamiz yol oldi. Ya`ni jahonning kuchli 24 jamoasi orasiga qushildi. Bu final bosqichi BAA da bolib otadi.



Osiyo chempionlari ligasi musobaqasida ham yurtimiz sharafini «Paxtakor» jamoasi himoya qilmoqda. Saralash basqishlarida omadli otgan «Paxtakor» jamoasi guruhi bahslarni davom ettiradi.

Kelajakda futbolimiz Ozbekistonning kuch qudiratini namoyish qiladi, yurtimiz shuhratiga–shuhrat qoshadi. Ya`ni jahon futbolini yuqori pag`onalaridan joy egallashi bejiz emas. Bizning bolalarimiz ham Braziliya, Angliya, Italiya, Ispaniya, Turkiya yoki Argentina bolalari singari dunyoga tanila boradi. Futbol sog`lom avlodni tarbiyalashda, xalqning ruhini kutarishga, yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Shuning Bilan birgalikda mamlakatimizda, qishloq maktablarida futbolimizning rivojlanishi biroz sustroq. Sababi, futbol maydonlarining murabbiylarini, mutaxassislarini etishmasligi, mashg`ulotlarning kam olib borishlaridir. Buni bartaraf qilish uchun biz birinchi navbatda kadrlar tayorlashga asosiy e`tiborni qaratishimiz lozim. Kuchli mutahasisi bolgandan keyin, mashg`ulotlar ham yahshi olib boriladi. Mashg`ulotlardan so`nggi natijalar ham yahshilanib boriladi. Maktab oquvchilari ortasida futbolda tanlash yonaltirish ishlariga katta e`tibor berish zarur.

Adabyotlar:

1. R.Akramov. «Yosh futbolchilarni tanlab olish» Toshkent. 1983 y.
2. Yu.N.Lopachev «Keling top tepamiz». Toshkent 1988 y.
3. P.N.Kazakov. 2Futbol». Toshkent 1981 y
4. S.N.Andreev.»Maktabda futbol». Moskva. FİS, 1986

РЕЗИОМЕ

Maqolada Fudbol o`yinining kelib chiqishi sabablari, futbolning Evropada rivojlanishi, Xalqora futbol assotsiatsiyalarining tuzilishi, Olimpiyada o`yinlari da`sturiga kiritilishi, Jahon va Evropa chempionatlarining payda bo`lishi, Ozbekistonga futbol o`yinining kirib kelishi va rivojlanishi, Ozbekiston futbolining ho`zirgi ku`nda jahon futbolida tutgan o`rni haqida so`z etilgan.

РЕЗИОМЕ

В статье рассматривается вопросы возникновения футбола, образование международных футбольных ассоциации, включение футбола в программу Олимпийских игр, проведение чемпионатов мира и Европы а также развитие футбола в Узбекистане.

SUMMARY

The article deals with the emergence of football, the formation of international football associations, the inclusion of football in the program of the Olympic Games, the holding of world and European championships, as well as the development of football in Uzbekistan.